



## JIZZAX VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI



## JIZZAX VILOYAT SANOAT ISHLAB CHIQRISHI

2022- YIL YANVAR - APREL  
(DASTLABKI MA'LUMOT)




## Jizzax viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


(2022- yil yanvar-aprel oylarida)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2022- yilning yanvar-aprel oylarida viloyat korxonalari tomonidan 3 142,9 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2021- yilning yanvar-aprelga oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi\* 106,3 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 94,6 % ni tashkil etdi.




### Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI\* % da



\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.


Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning 10,9 % ga suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda 3,6 % ga o'sishi kuzatildi.

**Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati**



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2022- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 28,4 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining ulushi 0,9 % ini tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda**



## 2022-yil yanvar-aprel

Tumanlar miqiyosida, tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi, mln. so‘mda

Tumanlar nomi	2021- yil yanvar-aprel	2022- yil yanvar-aprel	Farqi +/-
G‘allaorol tumani	1 567,8	6 420,6	4 852,8
Sharof Rashidov tumani	3 764,4	7 061,3	3 296,9
Zomin tumani	3 998,0	2 561,5	-1 436,5
Jizzax shahri	7 123,9	6 660,8	-463,1
Zafarobod tumani	2 515,7	2 548,3	32,6

Jami sanoat ishlab chiqarishi tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash Shahar va tumanlar kesimida jami hajmidagi eng yuqori ulushi Sharof Rashidov tumaniga to‘g‘ri kelib 4,7 % ni Zomin tumani 2,8 % va G‘allaorol tumani 0,9 % ni tashkil etdi.

108,8 %

2021- yil

30,7 %

2022- yil


O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da

Ishlab chiqaradigan sanoat

mlrd. so'm

Yanvar-aprel

FHI,% da



2022- yilning yanvar-aprel oylarda ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2974,6 mlrd.so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 94,6 % ini tashkil etdi.

2021-yil yanvar-aprel


90,4 %

2022-yil yanvar-aprel

94,6 %

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1 % ni , o'rtta-yuqori texnologiyali – 26,1 % ( 9,8 %), o'rtta-quyi texnologiyali – 17,1 % ( 17,3 %) va quyi texnologiyalisi – 51,3 % ( 63,3 %)ni tashkil etdi.


■ 2021- yil ■ 2022- yil




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 27,0 % ( 2021- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 75,4 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 0,7 % ( 2021- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 153,2 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 35,9 % ( 2021- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 102,4 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 12,0 % ( 2021- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 113,5 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 3,5 % ( 2021- yilning yanvar –aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 88,5 %)ni tashkil etdi.

**Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati**  
O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da


**Paxta tolasi**




**Paxta chigiti**




**Paxta linti**




**O'simlik yog'i (tozalangan)**



**Trikotaj polotnolar**



**Yumshoq bug'doy va spelta uni**



**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-aprel	2022- yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Paxta tolasi, t.	24 074,1	14 316,4	-9 757,7
Yumshoq bug‘doy va spelta uni, t.	21 141,4	21 847,3	705,9
Paxta chigiti, t.	38 060,8	22 716,4	-15 344,4
O‘simlik yog‘i (tozalangan), t.	1 887,2	3 424,3	1 537,1
Paxta linti, t.	2 329,6	1 067,7	-1 261,9
Trikotaj polotnolar, t.	1 086,0	555,0	-531,0

2022- yilning yanvar-aprel oylar davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 21,8 ming tonna yumshoq bug‘doy va spelta uni ( 3,3 % oshgan), 14,3 ming tonna paxta tolasi ( 46,0 % ga kamaygan), holda ishlab chiqarilib, 3,4 ming tonna tozalangan o‘simlik yog‘i ( 96,0 % ga ) yuqori o‘shish sur‘atlari kuzatildi.

**Yumshoq bug‘doy va spelta uni**

**103,3 %**


**Paxta tolasi, t.**

**54,0 %**


*O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*

### Metallurgiya sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-aprel oylarida metallurgiya sanoati ulushi 1,7 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 74,1 % ga tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilning yanvar-aprel oylar yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 0,8 % gacha kuzatildi, fizik hajm indeksi esa, 153,2 % o'sish sur'atlari kuzatildi va ishlab chiqarish hajmi 23,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.




### Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-aprel oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 11,1 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 122,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-aprel oylar yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 13,2 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 140,2 % ga o'sish sur'atlari kuzatildi va ishlab chiqarish hajmi 414,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.

### Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-aprel oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 15,3 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 110,7 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilning yanvar-aprel oylar yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 11,8 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 14,5 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 369,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.





### Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-aprel oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 58,7 % ni tashkil etgan. 2022- yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,1 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 85,3 % ni va ishlab chiqarish hajmi 4,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.




### To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-aprel oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 37,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 100,3 % ni tashkil etgan. Shuningdek, 2022- yilning yanvar-aprel oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 31,9 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 5,2 % ga o'sgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 1001,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.

### Kiyim ishlab chiqarish sanoati

2021-yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 5,9 % ni, fizik hajm indeksi esa 129,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,0 %, fizik hajm indeksi 89,8 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 127,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.



### Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2021-yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,7 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 289,2 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,0 % ni, fizik hajm indeksi 73,0 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 30,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.



### Elektr jihozlari ishlab chiqarish




2021- yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra, Elektr jihozlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 5,3 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 115,3 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,7 % ni, fizik hajm indeksi 77,5 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 116,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.

### Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish


2021- yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,2 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 38,5 % ga oshgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,6 % ni, fizik hajm indeksi 89,8 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 81,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.



## Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 109,5 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,5 % ini) tashkil etdi. 2022- yilning yanvar-aprel oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 4,4 % ga pasayishi kuzatildi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-aprel	2022- yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Elektr energiyasini uzatish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	77 572,7	78 778,2	1 205,5
Boshqa bug' va issiq suv (issiqlik energiyasi), ming gkal	12,1	3,3	-8,8
Gazsimon yonilg'ini quvurlar orqali taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	31 617,4	30 750,9	-866,5

## Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 30,4 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,0 % ini) tashkil etdi.



## Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021-yil yanvar-aprel	2022-yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm,	21 838,3	22 957,4	1 119,1
Chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilitatsiya qilish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	7 633,3	7 416,9	-216,4

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar 2,3 % ga oshganligi kuzatildi. Shuningdek chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilitatsiya qilish bo'yicha xizmatlar 24,0 % ga pasayishi kuzatildi.

## Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1460,5 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2021 yilning mos davriga nisbatan 145,2 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 46,5 % ni tashkil etdi.

### Oziq-ovqat mahsulotlari

2021-yil  
yanvar-aprel

22,7%

2022-yil  
yanvar-aprel

22,8%

### Nooziq-ovqat mahsulotlar

2021-yil  
yanvar-aprel

77,3%

2022-yil  
yanvar-aprel


77,2%

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish vino va aroq mahsulotlari va pivo 22,8 % (2021- yil yanvar-aprel oylarida 22,7 %) ni tashkil etdi. Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri kelib 22,8 % ni va Paxtakor tumani 8,5 % ni, G'allaorol tumani 41,1 % ni hamda Arnasoy tumani 5,2 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Zafarobod tumanida (368,2 %), Jizzax shahrida (173,4 %), Sharof Rashidov tumanida (158,1 %) hamda Paxtakor tumanida (167,1 %), qayd etildi.

**Shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri kelib, 22,8 % shuningdek, G'allaorol tumani 41,1 %, ni, hamda Paxtakor tumani 8,5 % ni tashkil etdi.



560,2 mlrd. so'm


2020-yil yanvar-aprel

810,8 mlrd. so'm

2021-yil yanvar-aprel

1460,5 mlrd. so'm

2022-yil yanvar-aprel



Jami sanoat ishlab chiqarish hajmida iste'mol mahsulotlarining ulushi

2020-yil

97,2 %

2021-yil

121,3 %

2022-yil

145,2 %

o'sish sur'ati

mlrd. so'm

2022-yil yanvar-aprel

Shahar va tumanlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri kelib, 19,0 % shuningdek, G'allaorol tumani 52,3 %, Paxtakor tumani 6,0 % ni tashkil etdi.

**337,9** mlrd. so'm


2020- yil yanvar-aprel

**559,6** mlrd. so'm



2021- yil yanvar-aprel

**1127,8** mlrd. so'm

2022- yil yanvar-aprel






Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida nooziq- ovqat mahsulotlarining ulushi



o'sish sur'ati  
mlrd. so'm

## Shahar va tumanlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri kelib, 35,7 % ni, shuningdek, Do'stlik tumani 8,2 % ni, Paxtakor tumani esa 17,0 % ni tashkil etdi.





## Jizzax viloyatining shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

Shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri kelib, 28,8 % ni, shuningdek, G'allaorol tumani 22,9 % ni, Zafarobod tumani esa 15,7 % ni tashkil etdi.

### Jizzax viloyati

2020- yil

1593,4 mlrd. so'm

2021- yil

2014,8 mlrd. so'm

2022- yil

3142,9 mlrd. so'm



2020- yil

101,1 %

2021- yil

116,7 %

2022- yil

106,3 %

Jizzax viloyati

106,3

3142,9

Jizzax shahar

109,5

903,9

Arnasoy

98,1

75,8

Baxmal

102,2

26,0

G'allaorol

206,6

718,8

Sharof Rashidov

103,3

150,7

Do'stlik

98,8

249,2

Zomin

101,1

92,5

Zarbdor

109,1

102,8

Zafarobod

141,4

494,3

Mirzacho'l

104,5

57,6

Paxtakor

105,1

166,7

Forish

110,7

79,7

Yangiobod

96,0


24,9

FHI, % da

mlrd. so'm



### Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Jizzax shahri (4 818,7 ming so'm), Zafarobod (9 558,4 ming so'm) tumanida hamda G'allaorol (4 005,1 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (2 172,0 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.



Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi




Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1 533,2 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 48,8 % ni tashkil etdi.



## Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 1009,4 ming so'm bo'lgani holda, Jizzax shahrida – 1 776,6 ming so'mni, Paxtakor tumanida – 1 598,7 ming so'mni, G'allaorol tumanida – 3 344,4 ming so'mni tashkil etdi.

### Jizzax viloyati



o'sish sur'ati

ming. so'm

## Jizzax viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatda 3791 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1135 tasi ( faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 29,9 % i ) Jizzax shahriga, 660 tasi (17,4 %) Sharof Rashidov tumaniga, 393 tasi ( 10,4 %) G'allaorol tumaniga, 292 tasi ( 7,7 %) Zomin tumaniga va 209 tasi (5,5 %) Zarbdor tumaniga to'g'ri kelmoqda.



### Jami yangi tashkil etilgan

2020-yil

194 dona

2021- yil

395 dona

2022- yil

344 dona



### Jami faoliyat yuritayotgan

2020- yil

2 908 dona

2021- yil

3 609 dona

2022- yil

3 791 dona